

GAZETALARNING O'TGAN ASRLARDA VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

Davronova Iroda Ulug'bekovna

Qarshi DU Tarix yo'naliishi 2-kurs magistranti

davronovairoda7@gmail.com

+998906731050

Annotatsiya: Maqolada gazetaning yaratilish tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida qiziqarli ma'lumotlar , o'tgan asrlar davomida Yevropa,Osiyo hamda boshqa mintaqalarda ularning vujudga kelishi,xususan, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan jadid gazetalari,ulardagi g'oyalar,soviet davri nashrlari, ularning mafkurasi va davrlar mobaynida yoritilgan mavzular,shuningdek,hozirgi kunda gazeta va jurnallar o'z ahamiyatini yo'qotgani, o'quvchilarни ulardan ko'ra ko'proq ko'ngilochar dasturlar o'ziga jalb qilayotgani haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari,gazeta,astuarii,"Kaiyuan",kitob bosish dastgohi,"Notizie Scritte","Corante","The gazette", "Post och Inrikes Tidningar","Turkiston viloyatining gazeti","Taraqqiy",vaqtli matbuot,jadid gazetalari,milliy matbuot.

IMPORTANCE OF NEWSPAPERS IN PAST CENTURIES AND TODAY.

Absract :The article contains interesting information about the history of the newspaper's creation and stages of development, their emergence in Europe,Asia and other regions over the past centuries,in particular,modern newspapers widespread in Central Asia,their ideas,Sovet era publications,their ideology and it is said that the topics covered during the period,as well as the fact that today newspapers and

magazines have lost their importance and the readers are more attracted to entertainment programs than them.

Key words: mass media,newspaper,astuarii,"Kaiyuan",printing press,"Notizie Scritte","The Gazette","Post och Inrikes Tidningar","Gazette of Turkistan region","Taraqqi",periodical press,gazette of djadid,national press.

ЗНАЧЕНИЕ ГАЗЕТ В ПРОШЛЫЕ ВЕКА И СЕГОДНЯ

Аннотация: В статье содержатся интересные сведения об истории создания газеты и этапах ее развития, а также о том, что сегодня газеты и журналы утратили свое значение, читателей больше привлекают развлекательные программы, чем они сохраняется.

Ключевые слова: средства массовой информации, газета, астуарии, "Кайюань", типография, "Notizie scritte", "Коранте", "Газета", "Пост оч Инрикес Тиднинггар" периодическое издание прессы, национальная пресса.

KIRISH.Zamonaviy dunyoda axborot olish va tarqatish osonlashib bormoqda.Ammo xolis va haqqoniy axborotlarni o‘z vaqtida berib borish orqali yolg‘on ma’lumotlar tarqalishining oldini olish qiyinlashib bormoqda. Umuman olganda, ommaviy axborot vositalari demokratiya va so‘z erkinligining o‘ziga xos o‘lchovi, ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vazifa , ya’ni xolis axborot olish va uni tarqatishning asosiy vositalaridan biri gazeta va jurnalardir.

Olamda har bir narsaning o‘z tarixi, buguni va kelajagi mavjud. Shu o‘rinda, maqolaning bosh mavzusi hisoblangan gazetalarning ham , albatta. Xo‘sh, ular doim ham shunday ko‘rinishda va shunday ahamiyatga ega bo‘lganmi Ular dastlab yaratilganda vazifasi nimadan iborat bo‘lgan Quyida gazetalar tarixi, ularning o‘tmishdagi vazifalari, kishilarning kundalik hayotida tutgan o‘rni haqida to‘xtalamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.Ilk gazetalarning yaratilish tarixi qadimgi sivilizatsiyalar o‘chog‘idan biri bo‘lgan Qadimgi Rim davlatiga borib

taqaladi.Dastlab gazeta vazifasini Rimda “astuarii” deb nomlangan, hozirgi kundagi reportyorlarga to‘g‘ri keladigan shaxslar bajargan.Rim imperatori Yuliy Sezar buyrug‘iga ko‘ra astuariilar fuqarolarga jang,tug‘ilish,o‘lim,hukm hamda to‘y kabi muhim siyosiy va mahalliy xabarlarni yetkazib turish uchun tayinlangan. Qog‘oz shaklidagi gazetalarning vujudga kelishi esa Qadimgi Xitoya borib taqaladi. Ilk qog‘ozda chiqqan gazeta ‘‘Kaiyuan ‘’ deb atalib, 713-yilda yaratilgan. Garchi qog‘oz gazetalar VII asr boshlarida yaratilgan bo‘lsa-da, ularni bosib chiqarish qiyinligi va bu ish uzoq vaqt talab qilgani bois unchalik ham ommalashmadidi. Gazetalarning keng tarqalishi nemis olimi Iogann Guttenbergning kitob bosish dastgohini kashf etishi bilan bog‘liq. Nemis olimining XV asrda yaratgan bu dastgohi insoniyat tarixida muhim o‘rin egalladi, chunki bu ndastgoh kitob bosish ishlarini ancha osonlashtirdi va gazetalarni chop etish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirdi.

Gazetalarning bunday atalishi esa 1556-yilda Venetsiya hukumatining mayda tanga –“gazette” evaziga oylik ‘‘Notizie Scritte’’ gazetasini tarqata boshlaganidan kelib chiqqan. Asosan ko‘ngilochar va qiziqarliroq mavzularning xabarchisi hisoblangan- jurnallarning yaratilishi ham nemis xalqi daholari bilan bog‘liqdir. Qattiq sahifali jurnallarning ilk ajdodlari 1558-yilda Germaniyada paydo bo‘lgan bo‘lib, uni Kyoln shahrida Maykl Esinger ismli shaxs chop ettirgan. Bu jurnal 24tagina sahifadan iborat bo‘lib, u o‘sha davrning muhim yangiligi bo‘lgan nemislarning ispan armadasi ustidan qozongan g‘alabasiga bag‘ishlangan edi. Ingliz va fransuz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda gazeta nashriyoti XVII asrdan boshlab, Gazette nomida qo‘llanila boshlagadi. Dastlabki doimiy gazeta esa Londonda ‘‘Coronte’’ nomi ostida chop etilgan bo‘lsa,birinchi fransuz gazetasi ‘‘The gazette’’ deb atalgan. Tom ma’noda ‘‘oqsoqol gazeta’’ nomini olgan, 1645-yildan hozirgi kunga qadar chop etib kelinayotgan ‘‘Post och Inrikes Tidningar’’ nomli gazeta Shvetsiyada chop etilgan dastlabki gazeta bo‘ldi. XVIII-XIX asrlar mobaynida Amerika ,Yevropa va Osiyo qit’alarining bir qator davlatlarida doimiy va vaqtli matbuotlar o‘z faoliyatini yo‘lga

qo‘ydi.1880-yildan esa gazeta va jurnallarning yanada ommabop bo‘lishi uchun ularda rasmlar ham aks ettirila boshlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.Markaziy Osiyoda ilk gazetalar “Turkistanskiy vedomosti” va “Turkiston viloyatining gazeti” 18970-yilda Toshkentda nashrdan chiqdi.Bu gazetalar Turkiston general-gubernatorligi tomonidan tashkil etilgan bo‘lib,maqsadi mustamlakachilarning yerli xalqlarga o‘zining siyosatlarini targ‘ib qilishdan iborat edi.Mazkur gazeta harbiy oorug shtabi huzuridagi bosmaxonada nashr etilgan. Har ikkala gazeta 1917-yilgacha chop etilgani bois , Turkiston tarixida uzoq muddat mobaynida uzlucksiz faoliyat ko‘rsatgan davriy nashrlar hisoblanadi.Ta’kidlab o‘tish kerakki,“Turkiston viloyatining gazeti” 1906-yilga qadar butun o‘lkada mahalliy tilda nashr etilgan yagona gazeta bo‘lgan.1906-yil 27-iyundan boshlab, Turkistondagi ilk milliy gazeta “Taraqqiy” dunyo yuzini nko‘rdi.Gazeta Toshkentda Ismoil Obidiy muharrirligi ostida chop etilgan.Unda chor Rossiyasining Turkistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini dadillik bilan fosh qilishga bag‘ishlangan maqolalar bosilgan . “Taraqqiy”da bosilgan maqola,felyeton va boshqa materiallarda tanqidiy yo‘nalish,fosh qilish ruhi kuchli bo‘lgani uchun u o‘sha davrning eng ommaviy nashriga aylangan va jamoatchilik fikriga katta ta’sir ko‘rsatgan. Munavvarqori Abdurashidxonov, Maxmudxo‘ja Behbudiy, So‘fizoda,Shomir Muxtoriy,Zarif Xoliqiy va shu kabi ma’rifatparvar jadidlarning ommaga milliy ozodlik,taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib va tashviq qiluvchi asarlari “Taraqqiy” sahifalarida chop etib turilgan.Bu gazetada chop etilgan ko‘plab maqolalar o‘tkir tanqidga ega bo‘lganligi sababli rus mustamlakachi ma’murlariga ma’qul kelmaydi va shu sababli 19-soni chiqqanidan so‘ng “Taraqqiy” gazetasi yopib qo‘yiladi.

Biroz vaqt dan so‘ng,Chor hukumati inqilobiy harakatlardan qo‘rqib, boshqa sohalar qatori matbuot sohasiga ham oz bo‘lsada yon berishga majbur bo‘ladi. Natijada bir nechta vaqtli nashrlar vujudga keldi.Bunda jadid bobolarimizning o‘rni beqiyos bo‘ldi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Jadid matbuotining yirik nashrlaridan biri

1914-yil 3-apreldan Qo‘qon shahrida chiqa boshlagan” Sadoi Farg‘ona” gazetasidir.Uning egasi va muharriri tog‘-kon muhandisi Obidjon Mahmudov bo‘lib, gazeta uning xususiy matbaasida bositgan.Gazeta xalqni jaholatga qarshi kurashga, foydasiz rasm-rusum va bid’atlarni tugatishga,ularga sarflanadigan mablag‘larni esa millat bolalarini o‘qishi uchun ishlatishga chaqirdi.”Sadoi Farg‘ona” ilk sonlaridanoq xalqning sevimli gazetasi va mihogama minbariga aylanib ulgurdi. ‘‘Sadoi Farg‘ona” o‘z sahifalarida siyosiy xabarlargacha ham ko‘p o‘rin bergan. Muhimi bu materiallar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustamlakachilar manfaatini emas,aksincha, Turkiston xalqlarining qiziqishlarini ifoda etgan.Afsuski,’’ Sadoi Farg‘ona”ning oxirgi-123-soni 1915-yilning 6-iyunida chiqdi.’’Sadoi Farg‘ona”gazetasi o‘z davrining siyosiy-ijtimoiy,iqtisodiy,madaniy-ma’rifiy va maishiy muammolarini dadil ko‘tara olgan nashr sifatida o‘zbek jurnalistikasi tarixida muhim o‘rin egalladi. Shunday gazetalardan yana biri ‘‘Najot”bo‘lib,Turkiston musulmonlari markaziy sho‘rosining nashri sifatida dunyoga kelgan. Munavvarqori Abdurashidxonov muharrir bo‘lgan bu gazeta,Avloniyning yozishicha, Chor hukumati zulmidan qutulish uchun ‘‘Najot” deb nomlangan. Turkistondagi jadid matbuotining eng nufuzli, dadil va sermazmun gazetalaridan biri ‘‘hurriyat”dir . ‘‘Hurriyat” garchi Turkistonning bir viloyati Samarcandda chiqsa ham, o‘sha paytda o‘lkaning markaziy gazetasi mavqeiga erishgan edi. O‘tgan asrda nashrdan chiqqan yana bir mashhur gazetalardan biri ‘‘Ulug‘ Turkiston” gazetasi 1917-yilning 25-apreldan tatarlarning ‘‘Ittifoq” jamiyatini tomonidan Toshkentda chiqarila boshlangan.’‘Ulug‘ Turkiston” Rossiyada yuzaga kelgan siyosiy-ijtimoiy vaziyatni sinchiklab kuzatib borar ekan,milliy zulm ostida ezilib kelgan Rossiya musulmonlariga o‘z mustaqilliklarini qo‘lga kiritish imkoniyatlari yuzaga kelayotganini qata –qayta ta’kidlab turar edi. Turkistonda bolsheviklar hokimiyatga kelganidan so‘ng ham gazeta o‘z maslagini o‘zgartirmaslikka intildi.Natijada ,1918-yilning noyabriga kelib,120-sonida sho‘rolar tomonidan to‘xtatildi.O‘zbekiston SSR tashkil bo‘lganidan keyin,1925-yildan aholining turli qatlamlariga mo‘ljallangan respublika miqyosidagi gazetalar;’‘Yosh

leninchi'', ''Komsomolets Vostoka'' «Kambag‘al dehqon», «Qizil yulduz», «Batrak», «Ishchi», «Pioner Vostoka», «Lenin uchquni», «Uzbekistanskaya pravda», «Madaniy inqilob» va boshqalar aynan Toshkentda chiqa boshladi. 30-yillarga kelib matbuot butkul stalinizm jarchisiga aylandi. Barcha masalalar bo‘yicha u faqat partiya rahbariyatining rasmiy yo‘l-yo‘riqlari va nuqtai nazarini ifodaladi, shu yillarda butun mamlakatda amalga oshirilgan yalpi qatag‘on uchun mafkuraviy zamin ham yaratdi. Shu davrda matbuotni tashkil etish va taraqqiy toptirishda xizmatlari singgan Usmonxon Eshonxo‘jayev, Abdulhamid Sulaymonov (CHo‘lpon), Abdulla Qodiriy, Ziyo Said, Mo‘min Usmon, Mannon Romiz, A’zam Ayubov, Abulhay Tojiyev, Muhammad Hasanov, Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov, Qosim Sorokin, Qurbon Beregin va b. iste’dodli jurnalistlar, muharrirlar, publitsistlar o‘zлari tashkil etgan matbuotda «xalq dushmanlari», «partiyaga qarshi trotskiychi-zinovyevchi-buxarinchi guruhlarning hamtovoqlari», «ashaddiy millatchilar» deb nohaq badnom qilindi va stalincha qatag‘on qurbaniga aylandilar.

Ikkinci jahon urushining boshlanishi o‘zbek milliy matbuotida o‘ziga xos burilish yasadi. Umuman sho‘rolar matbuotining urush davri faoliyatiga qisqacha tavsif beradigan bo‘lsak, bu vaqtda frontda o‘zbek tilidagi qator nashrlar,xususan,"Dushmanga qarshi olg‘a", "Suvorovchi", "Vatan uchun", "Front haqiqati", "Qizil aslar haqiqati", "Vatan sharafi uchun" kabi gazetalar nashr etilgan va tarqatilganini aytib o‘tish joizdir.Urushdan keyingi mamlakat xalq xo‘jaligini tiklash,"sotsializm qurilishi uzil-kesil va g‘alaba qilishi"ni ta'minlashda matbuotning vazifasi oshib boradi. Turg‘unlik yillarida sovet ommaviy axborot vositalari sistemasi takomillashadi.Sobiq sovet davlati davrida O‘zbekistonda davriy matbuot tarmog‘i respublika,viloyat va tuman miqyosida chiqadigan umumsiyosiy va tarmoq gazetalarishi,shuningdek,yangi jurnallar hisobiga kengayadi.Ayni paytda radiojurnalistika va telejurnalistika ham tarkib topa boradi. Lekin bular mustabid tuzum ko‘zlagan siyosiy,iqtisodiy va mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilishga mahmum edi.

Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyin, ommaviy axborot vositalari sohasi har jihatdan yuksaldi. Toshkentda 1991 yil 1 yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (Oliy Majlisi) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq so‘zi», «Narodnoye slovo» gazetalari nashr etila boshladi. Endilikda tashkilotlar, partiyalar, harakatlar, uyushmalar, ayrim jamoalar, fuqarolar ham ommaviy axborot vositasini ta’sis etish huquqiga ega bo‘ldilar. Mamlakatimizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy, harbiy, ilmiy va boshqa sohalardagi yangidan-yangi nashrlar ta’sis etildi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi matbuot xizmati ma'lumotiga ko‘ra, yurtimizda eng ko‘p so‘ralgan 5 nomdagi gazetalar aniqlandi. Bular "Xalq so‘zi" ("Народной слово"), "O‘zbekiston ovozi" , "O‘zbekiston adabiyoti va san'ati" , "Hurriyat" va "Ishonch" kabi mashhur ommaviy gazetalardir.

XULOSA. Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, gazeta va jurnallarning soni va ularda bosilib chiqayotgan maqolalar xilma-xil hamda dolzarb bo‘lishiga qaramay, gazeta-jurnallarga bo‘lgan talab susayib bormoqda, matbuotlar soni oshgani bilan sifati a’lo darajada emas. Buning natijasida esa sifatsizroq bo‘lgan gazeta va jurnallar o‘z faoliyatini to‘xtatdi, qolganlari esa o‘quvchilarini yo‘qotib bormoqda. Shunday bo‘lsada, gazetalarning asosiy maqsadi xalq ongini rivojlantirish, ommaga haqqoniy va to‘liq ma'lumot berish kabi muhim vazifa ekanligini unutmasligimiz lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi. Toshkent-2017.2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent-2022.
3. Abdiyev. R. F. Axborot sivilizatsiyasi falsafasi. Moskva-1994.
4. "Hurriyat" gazetasi. 17.04. 2022-yildagi 34-soni.
5. Diez Friedrich. An Etymological Dictionary of the Romance Languages. London -1864 .

6. "Informational Available". London Gazette, London-2011.
7. Olshanski D.V. Omma psixologiyasi -SPb: Piter 2002.
8. "Toshkent" ensiklopediyasi. T-2009.
9. "Taraqqiy "," Najot ", " Hurriyat"- Turkistonni larzaga solgan gazetalar. B. Irzayev. Oyina.uz maqola.